

## HOZIRGI O‘ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY TILLARIDAGI IKKI KOMPONENTLI FE’L FRAZEMALAR

**Xaytbayev Oybek**, assistent o‘qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

## TWO-COMPONENT VERBAL EXPRESSIONS IN MODERN UZBEK AND KARAKALPAK LITERARY LANGUAGES

**Xaytbaev Oybek**, assistant

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

## ДВУХКОМПОНЕНТНЫЕ ГЛАГОЛЬНЫЕ ФРАЗЫ В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЯЗЫКАХ

**Хайтбаев Ойбек**, ассистент-преподаватель Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза



<https://orcid.org/0009-0000-0875-1552>

e-mail:

[xaytbayev\\_oybek@mail.ru](mailto:xaytbayev_oybek@mail.ru)

Tel: +998907278287

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tillaridagi sinonim frazemalarning tayanch komponentini fe’llar, notayanch komponentini boshqa turkum so‘zlari tashkil qilib, ular ikki, uch, to‘rt va hokazo komponentli bo‘lishi nazariy ham amaliy jihatdan misollar asosida isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** sinonim frazemalar, fe’l frazema, tayanch komponent, notayanch komponent, lokal kelishiklar, frazeologik sinonimiya, frazema.

**Abstract:** In the article, verbs are the main component of synonymous phrases in modern Uzbek and Karakalpak literary languages, and words of other categories constitute a minor component and theoretically and practically they have two, three, four and other components are proven with examples.

**Key words:** synonymous phrases, verb group, basic component, non-basic component, local clauses, phrases.

**Аннотация:** В статье теоретически и практически на примерах доказано, что базовым компонентом синонимических фразем в современных а небазовым компонентом составляют слова других категорий, которые узбекском и каракалпакском литературных языках являются глаголы, могут быть двух, трёх, четырёх и больших компонентов.

**Ключевые слова:** синонимические фраземы, глагольная фразема, базовый компонент, небазовый компонент, локальные падежи, фразеологическая синонимия, фразема.

**Kirish (Introduction).** Hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi sinonim frazemalarning ko‘pchiligini fe’l frazemalar tashkil qilishi o‘z isbotini topdi. Bunday frazemalar tayanch komponentini fe’llar, notayanch komponentini boshqa turkum so‘zlari tashkil qilib, ular ikki, uch, to‘rt va hokazo komponentli bo‘lishi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Sh.Rahmatullayevning O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati, Q.Paxratdinov,

Q.Bekniyazovlarning Qoraqalpaq tilini frazeologizmler so‘zligi, G.Aynazarovning Qoraqalpaq tilinde te‘les eki komponentli frazeologizmler so‘zligi, shuningdek, tilshunos olimlarning olib borilgan tadqiqotlariga tayanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** **Ikki komponentli ot + fe’l tipidagi fe’l frazemalar.** Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe’l bilan, notayanch komponenti ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi. Notayanch komponenti

otga xos bo'lgan nisbatlovchini qabul qiladi: **og'zi bormadi – tili bormadi** kimning nima qilishga biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmaslik: *Ana shunda otasiga istagini aytmoqchi bo'ldi, lekin tortindi – og'zi bormadi.* (M.Ismoilij). *U onasining avzoyidan biron alam o'tganini sezdi-yu, lekin "Nima bo'ldi?" deb so'rashga tili bormadi* (N.Nazarov). (O'TFL, 209, 257).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Notayanch komponenti otga xos bo'lgan nisbatlovchini qabul qiladi:

**Júzi bozarıw – óni aǵarıw.** Frazemaning semantikasida "ruhan, jismonan azoblanib, kasal kishi qiyofasiga kirmoq" semalari mavjud: *Jumabay júzi bozarıp, denesi qalsh-qalsh etti* (K.Sultanov "Aqdárya"). *Xattıń orta beline kelgende onıń óni aǵarıp, júregi qısılganday boldı: «... Tuwısqan aǵam Qádir!» – dep jazıptı Jamal – topılısqa ketip baratırız.* (K. Sultanov). *Dáslepki kúnleri saǵımp sarǵaysa da, urıstıń zardabının balanıń da júregi qatıp, tek azanda kemir sheshesinen: – Kempir apa, búgin aǵam, kishem keldi me? – dep ókpele shıray menen soraytuǵın boldı.* (K.Sultanov "Aqdárya").

Shuningdek: **ayıp kórme – ápiw et; ada qıldı – tamam etti; ajarı qashtı – kórki ketti; 2) júregi jarıldı; azıw saldı – kek tuttı** kabi.

Tilshunos M.Vafoyeva o'zining "O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida frazeologik sinonimlarning struktural jihatlarini o'rganar ekan, ikki komponentli ot+ot tipidagi fe'l frazemalar guruhini ajratadi. **Qulog'im sizda – qulog'im ixtiyoringizda** kabi misollarni keltiradi [1;26]. Bunda birinchi komponent ot bilan, ikkinchi komponent esa sifat bilan ifodalangan.

**Ikki komponentli ot + o'timli fe'l tipidagi fe'l frazemalar**

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti o'timli fe'l bilan, notayanch komponenti ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Notayanch komponenti otga xos bo'lgan nisbatlovchini qabul qiladi: **Adab(i)ni bermoq – Adab(i) berildi** kimning qilmishiga yarasha jazolamoq. Sinonimi: **jazo(si)ni bermoq** kim? kimning?

*Xalilovdan gunohingni so'rab oldim. Bo'lmasa adabingni berardi* (I.Rahim. Ixlos). (O'TFL, 32).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti o'timli fe'l bilan, notayanch komponenti ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Notayanch komponenti otga xos bo'lgan nisbatlovchini qabul qiladi. Tushum kelishigi qo'shimchasi qoraqalpoq tilida **-n, -in, -in** shakllarining biri bilan ifodalanadi. Qaysi shakl qo'llanilishi singarmonizm bilan aloqador bo'lib, asosning qanday tovush bilan tugallanishiga bog'liq:

*Kórđıń be, biylerđıń sumlıǵın? Hásseniy, ekewiniń-ám sazayın ber deydi?*

*– Ondaý nárise seniń qolıńnan keleme? – Ashıwım kelse, pútkil qaraqalpaqtı suwǵa batıraman, otqa órteymen* (T.Qayıpbergenov "Túsiniksizler"). *Kempir balasına qabaǵın úyip, kozlerin alartıp suwıq qaradı: – Eri hayalınan, hayalı erinen, balası ata-anasınan bezgen zaman boldı goy* (K.Sultanov "Aqdárya").

**Abırayın tókti – masqarasın shıǵardı, ızasın keltirdi – qapa qıldı, shashbawın kóterdi – jaǵımpazlıq qıldı, shaqın qayırdı (sındırdı) – betin qayırdı** kabi.

**Ikki komponentli ot + o'timsiz fe'l tipidagi fe'l frazemalar**

Bu tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti ot so'z lokal kelishiklardan birining qo'shimchasini oladi: **alamdan chiqmoq – xumordan chiqmoq** kim urib-so'kib, o'ch olib, alamzadalikni tarqatmoq: *Qo'y demaningizda, og'zi burnini dabdala qilib, alamdán chıqay degan edim* (P.Tursun). *Savrixon [Xayrining xulqi haqida] gapirib-gapirib xumordan chıqdı* (H.Nu'mon) (O'TIL, 18, 288).

Qoraqalpoq tilida ham tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti ot so'z lokal kelishiklardan birining qo'shimchasini oladi: **aqiretke jónew – gúm bolıw.** Frazema semantik tarkibida "vafot etmoq, o'lmoq, dunyodan o'tmoq" semalari mavjud. Misollar:

*Basqa sózdi aytpastan,*

**Aqiretke jónedi** (Alpamis).

*Qádirbay ómir boyı jasay beriwge, ólmeytuǵın adam ba? Ol da bir kún atasıńızın ızinen gúm bolar* (A.Bekimbetov). *Sıdıqqa bir awız xabar bergende go anawlarǵa jolda gana gúm ettirer edi* (Sh.Seytov). Shuningdek: **hásiretke battı – qayǵı-**

*uwayimga tústi, hawazúndi óshir – hawazú shiq-pasin, halíña qara – shamañdi bil, haqinan shiqti – pánt berdi, wádesinen shiqti – sózinde turdi* kabi.

#### **Ikki komponentli sifat + fe'l tipidagi fe'l frazemalar**

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti sifat so'z turkumi bilan ifodalanadi. **Baland kelmoq – zo'r kelmoq** kim yoki nima nimada kuchli bo'lib chiqmoq.

*Oxiri uyqu zo'r keldi.* Kimdir unga o'z tizzasini yostiq qildi. Xolmurod bosh qo'ydi va hech narsa sezmasdan, butun qayg'u-alamlarini unutib, juda qattiq uxлади (P.Tursun). (O'TFL, 26, 106).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti sifat so'z turkumi bilan ifodalanadi: *El qaytadan tohiswga bet alip, "pálensheniñ hayali jas bosanipti", "pálenshe dumatayli bolipti..."* degen quwanishli xabarlar bulthi túnde jilt etken juldizlarday, jaqtılıqtan dámelendirip quwantin kiyatirganda, elge bes júz nóker salınıp, olardıñ da birazi tiri qaytpağanına, tiri qaytqanlarınıñ qarıw-jarağı alıp qalınıp, sıptay sibay-saltañ jiberilgenine, qabırğası sótilip, basın kótere almaytuğın úlken biydiñ bul otırısı zayıbı Bağdagúlge **jeñil tiymedi** (T.Qayıpbergenov. Maman biy ápsanası).

#### **Son+fe'l komponentli fe'l frazemalar**

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti esa son bilan ifodalanadi.

**Eki sóylew, eki sóylemew, túrt ayaqlaw, toqsan tolğanıw** kabi. Misollar: *Ol júdá parasatlı, eki sóylemeytuğın, xoshámetti kótermeytuğın keñ peyil adam* (O.Abdraxmanov). – *Qoy sheshe, meniñ hesh nársege támem joq, dep túrt ayaqladı apam* (M.Nızanov). *Ómirdi oylap, uzaq kún toqsan tolğanadı da júredi* (K.Sultanov).

#### **Taqlid so'z+fe'l komponentli fe'l frazemalar**

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti esa taqlid so'zlar bilan ifodalanadi.

Masalan o'zbek tilidagi **"churq" etmaslik**, uning sinonimi bo'lgan **lom-mim demaslik** frazemalari kabi: *Ortga qaytishni ma'qul ko'rmay, chiqim sal ko'proq bo'lsa ham, yo'lovchi mashinaga o'tirdilar. Yo'l-yo'lakay churq etmasdan keldilar*

(T.Malik. "Murdalar gapirmaydilar"). (O'TFL, 635). *O'zi yaxshi yigit-u, onasiga "lom-mim" deyolmaydi-da.* (S.Ahmad. "Hasrat"). *Polvon lom-mim deyolmay qoldi. Tani boshqa dard bilmas ekan.* (S.Ahmad. "Qorako'z majnun"). (O'TFL, 304).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti esa taqlid so'zlar bilan ifodalanadi: **lám-mim bolıw, sam-saz bolıw, ar-sar bolıw** kabi.

*Jumabay suwıq demin alıp: – Bul kúyikten frontqa ketken abzal goy – dep lám-mim boldı da, az ganadan keyin-bárin de esittim.* (K.Sultanov). *Porxannıñ bala-shağaları menen qoñsı-qobaları bir zamanda bolıp ótken hadiysege ar-sar bolıp qaldı.* (M.Nızanov "Dushpan"). *Lekin, geyde-geyde óz-ózinen kewli qulazıp, dástúrhan basında gáp-sózge aralaspay sam-saz bolıp otırıp qalatuğın ádetti shığardı.* (M.Nızanov).

**Xulosa (Conclusion).** Umuman olganda, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi sinonim frazemalarning ko'pchiligini fe'l frazemalar tashkil qilishi o'z isbotini topdi. Bunday frazemalar tayanch komponentini fe'llar, notayanch komponentini boshqa turkum so'zlari tashkil qilib, ular ikki, uch, to'rt va undan ortiq komponentli bo'lishi keltirilgan misollarimizda o'z isbotini topdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vafoyeva M.Y. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2009. – 26 s.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 379 b.
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K., O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022 – 458 b.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniñ qisqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. – 158 b.
5. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniñ frazeologizmler sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2018. – 160 b.
6. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teñles eki komponentli frazeologizmler sózligi. – Nókis: Ilimpaz, 2023. – 80 b.